


5-dars. Takrorlash. Sonli va harfiy ifodalar



1. Qaysi ifodaning qiymatini hisoblab bo'lmaydi? Nima uchun?



$$x + 1$$



$$6 + 1$$

Noma'lum qiymat harf bilan ifodalanadi. Shuning uchun harfiy ifodaning qiymatini hisoblab bo'lmaydi.

$$12 + a$$

Agar harf o'rniga son qo'yilsa, uning qiymatlaridan birini topish mumkin.

$$12 + a, \text{ agar } a = 3 \text{ bo'lsa,} \\ 12 + 3 = 15$$



2. $a - 7$ ifodaning qiymatini a ning quyidagi qiymatlarida hisoblang.

O' $a = 14$

N $a = 39$

P $a = 18$


O $a = 27$

CH $a = 9$

Qiymatlarni **o'sish** tartibida joylashtirib, harflarni yozing. Qanday so'z hosil bo'ldi?



3. Cho'ponning podasida 43 ta sigir va ulardan 2 ta ko'p buzoq bor. Podadagi sigir va buzoqlar jami nechta?





4. Hisoblang.

$$(16 - 12) + 9$$

$$(20 + 18) - 2$$

$$5 + (16 - 9)$$

$$3 + (7 + 8)$$

$$14 - (11 - 4)$$

$$20 - (18 + 2)$$



5. Yozda Botir bobosiga yaylovda yordam berdi. Bobosining yaylovdagi chorva mollari soni quyidacha:



sigirlar a ta



qo'ylar b ta



otlar c ta



echkilar d ta

Ushbu ifodalar qanday savollarga javob bo'ladi?

$$a + b$$

$$b + c$$

$$c + d$$

$$a + b + c + d$$

$$a - b$$

$$b - c$$


$$c - d$$



6. Sigir ertalab 7 litr, kechqurun esa 8 litr sut berdi. Bu sutdan kefir uchun 5 litr, tvorog uchun 4 litr olindi. Necha litr sut qoldi?



7. Sxema bo'yicha $a + b$ ifodaning barcha mumkin bo'lgan qiymatlarini toping. Bu misollarni yozing.



8. Harfiy va sonli ifodalarni yozing. Sonli ifodalarning qiymatini hisoblang:

a) 18 va 41 sonlari yig'indisi;

b) x va 19 sonlari yig'indisi;

d) 87 va 23 sonlari ayirmasi;

e) 27 va y sonlari ayirmasi.

9. Nozimning bobosida 14 ta qo'y va ulardan 11 ta ko'p echki bor. Bobosining qo'y va echkilar soni jami nechta?

